

AMIR TEMUR TARAQQIYOT YO'LI.

Muallif: Toshkentboyeva Xumora

Annotatsiya (Abstract)

Amir Temur o'zbek dunyo siyosati va tamaddunida ulkan iz qoldirgan buyuk siymolardan biri hisoblanadi. Uning adolatli davlat boshqaruvidagi boy tajribasi bugungi kunda nechog'lik ahamiyatli ekanini barchamiz yaxshi anglaymiz. Ushbu maqolada Amir Temurning taraqqiyot yo'li, uning davlat barpo etishdagi siyosati, hamda ta'lim va harbiy sohalaridagi islohotlari haqidagi fikrlar ilgari surilgan. Shuningdek, maqolada "Temur tuzuklari"ning davlat boshqaruvidagi ahamiyati va zamonaviy o'quvchilar tafakkuriga qanday ta'sir qilishi yoritib beriladi. Maqolada Amir Temuring buyuk davlat arbobi sifatidagi o'rni va uning siyosati orqali erishilgan taraqqiyot jarayonlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, siyosat barqarorlik, Temuriylar davlati, faoliyat, "Temur tuzuklari", harbiy islohotlar, ta'lim tizimi, tarixiy meros, Bobur, Samarqand, adolat, qonun ustuvorligi, markazlashgan davlat

Asosiy qism:

1. Amir Temur: Hayoti va shaxsiyati.

Amir Temur 1336 yil 9 aprel kuni Kesh yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan. Rivoyatlarga ko'ra, u qo'lida qip-qizil qon bo'lagi bilan, sochlari esa mo'ysafid kabi oppoq holatda tug'ilgan, bunday holat hattoki Chingizxon bilan o'xshashligi haqida ham gapirilgan. Yoshligidan ilm-fan harbiy san'at va kamondan otishni mukammal egallagan, o'tkir xotira va shijoat sohibi bo'lgan. Uning otasi amir Muhammad Tarag'ay turk avlodining barloslaridan bo'lib, Movarounnahrda o'ziga xos obro'-e'tiborga ega va nufuzli ziyolilardan bo'lgan.

1370-yilda Amir Husayn ustidan g'alaba qozonib, butun Movarounnahr hokimi sifatida Samarqandda taxtga o'tiradi. Oltin o'rda, Usmoniylar imperiyasi, Hindsiton va Eron kabi hududlarga yurishlar qilib, ulkan imperiya barpo etgan.

2. Temuriylar harbiy san'ati.

Temuriylar armiyasi son jihatdan aniq tashkil etilgan, uning jangovor tartibi takomillashib brogan, o'z vaqtining ilg'or qurol va texnikasi bilan ta'minlangan, qismlar bir-biridan kiyimbosh, bayrog' va tug'lari bilan farqlangan. Dushman mudofaasini turli usullar bilan barbod etish, raqibning yirik shaharlariga qo'qisdan zarba berish, yov kuchlarini iloji boricha keng ko'lamda qurshab olib, birin-ketin zarb etish edi.

Jahon harbiy san'ati rivojiga Amir Temur va uning avlodlari, xususan, Bobur salmoqli hissa qo'shgan. Bu mutaxassislar, sarkardalar tomonidan shartli ravishda e'tirof etilgan. Buyuk lashkarboshi va novator harbiy tashkilotchi hisoblanmish Sohibqiron intizomli armiya tuzishga, jang paytida qo'shin qismlarini oqilona boshqarishga, mavjud to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf qilishga, qo'shindagi jangovor ruhni yuksak darajaga ushlab turishga erishgan.

3. Amir Temur davrida ta'lim renessansi.

Temuriylar davri renessansining asosi sifatida ta'limga, ilm-fan va madaniyat ahliga kata e'tibor berildi. Olimlar, shoirlar va hunarmandlar qo'llab-quvvatlanib, ilm-fan rivoji davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Qudratli saltanat va ma'rifatli jamiyat barpo etishda qadim turkiy davlatchilik ana'analari va islomiy shariatga tayanib ish tutgan Amir Temur har qanday taraqqiyotning asosi sifatli ta'lim tizimi ekanligini chuqur anglagan edi. Shu sababi Sohibqiron birinchi galda ta'lim va tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish, ilmiy, ma'rifati shaxslarning jamiyatdagi mavqeini ko'tarish yo'lidan bordi. Ulkan shaharning barcha nuqtalarida ilm dargohlari barpo qildi. Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, bu davrda o'g'il bola 4 yil, 4 oy, 4 kunlik bo'lganda maktabga berish an'anasi amalda bo'lib, boshlang'ich ta'lim ulkan saltanating barcha mada'niy o'lkalarini qamrab olgan edi.

4. “Temur tuzuklari” asari.

Amir Temurning hayotlik vaqtida davlat boshqaruvi haqida so'zlovchi “Temur tuzuklari” nomli maxsus asar yozilgan. Asar ikki qismdan iborat bo'lib, O'rta asrning bebaho tarixiy manbasi hisoblanadi. Unda Temurning hayotiy voqealari bilan bog'liq tarjimai xoli, atoqli davlat arbobi va sarkardaning harbiy san'atga bo'lgan nuqrai nazari, davlat tuzilishi va boshqaruvi kabilar bayon qilingan, Amir Temur tomonidan yaratilgan markazlashgan, kuchli boshqaruvga ega davlat ushbu bebah qoidalar majmuasi hisoblanmish kitob asosida yaratilgan.

Asardagi asosiy g'oyalar: adolat – davlatning asosiy tayanchi, qonun ustuvorligi – hamma uchun barobar, intizomli qo'shin – kuchli davlat garovi, aql va maslahat – zo'ravonlikdan ustun, sadoqat va mehnat – mansabning mezon. Asarning tarixiy ahamiyati shundaki, “Temur tuzuklari” Markaziy Osiyo davlatchilik tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Ko'plab hukmdorlar uchun siyosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan. Bugungi kunda ham rahbarlik, adolat va tartib haqida qimmatli g'oyalarni berdi.

5. Iqtisodiy va madaniy rivojlanishlar.

Yirik davlatni yaratib, Amir Temur mamlakatining iqtisodiy va madaniy rivoji uchun sharoitlarni tayyorlagan. O'tgan davrlarning qadimiy an'analari yangi

tarixiy ko'rinishda qayta tiklanadi. Yaqin va O'rta sharq bo'ylab Movaraunnahr savdo-sotiq, iqtisodiy va madaniy markazga aylanish zamirida, Samarqand, Kesh, Buxoro, Termiz, Toshkent va Marv shaharlari obodonlasha boshlagan.

Masjid, madrasa, maqbara, karvon-saroy va hammomlarning katta binolari qad rostlay boshlagan. Har qanday g'alaba me'morchilikda abadiylashishi odatiy holatga aylanib qolgan. Quruvchilik faoliyatida Amir Temur ma'lum bir siyosiy maqsadlarga amal qilgan - u qurdirgan inshootlar saltanatning kuch-qudratini ko'rsatib bera olishi kerak bo'lgan.

Xulosa.

Amir Temur nafaqat zabardast sarkarda, balki taraqqiyotga yo'l ochgan buyuk davlat arbobi sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi. Uning taraqqiyot yo'li kuchli davlat, adolatli boshqaruv va ilm-ma'rifatga tayanish orqali amalga oshdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi" // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. 2025- 420 bet
2. "Xalq so'zi" gazetasi.
3. "Temur tuzuklari" asari. Xotima. 318 bet